

TURKIY TILLARDA SINGARMONIZM HODISASI

Xabibullayeva Nafisa Sherali qizi

Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada turkiy tillardagi singarmonizm (unli va undosh tovushlarning o‘zaro moslashishi) hodisasi va unga aloqador namunalar tahlil qilingan. O‘zbek tilida qisman saqlangan singarmonizm unsurlarining lingvistik xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: singarmonizm, lingvistik tahlil, turkiy tillar, boshqird, qozoq, qirg‘iz va usmonli turk tili, og‘zaki nutq, o‘zlashgan so‘zlar.

ФЕНОМЕН СИНГАРМОНИЗМА В ТУРЕЦКИХ ЯЗЫКАХ

Хабибуллаева Нафиса Шерали кизи

Студентка филологического факультета Наманганского государственного университета

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется явление сингармонизма (взаимная адаптация гласных и согласных) в тюркских языках и примеры, связанные с ним. Выявляются языковые особенности элементов сингармонизма, частично сохранившихся в узбекском языке.

Ключевые слова: сингармонизм, лингвистический анализ, тюркские языки, башкирский, казахский, кыргызский и османско-турецкий языки, устная речь, приобретенные слова.

THE PHENOMENON OF SINGHARMONISM IN TURKISH LANGUAGES

Khabibullayeva Nafisa Sherali qizi

Student of the Faculty of Philology of Namangan State University

ANNOTATION

This article analyzes the phenomenon of synharmonism (mutual adaptation of vowels and consonants) in Turkic languages and examples related to it. Linguistic features of elements of synharmonism partially preserved in the Uzbek language are revealed.

Key words: synharmonicism, linguistic analysis, Turkic languages, Bashkir, Kazakh, Kyrgyz and Ottoman Turkish, oral speech, acquired words.

KIRISH

Singarmonizm (yun. syn birga va harmonia — ohangdoshlik, uyg'unlik), unlilar garmoniyasi (ohangdoshligi) — asosan, turkiy tillarda, qisman mo'g'ul, tungus-manjur, fin-ugor, paleoosiyo tillarida uchraydigan fonetik hodisa. Singarmonizm so'zdagi unlilarning ma'lum nuqtayi nazardan bir xillashishi bo'lib, turkiy tillarning barchasiga tegishli qonuniyat ekanligi mutaxassislar tomonidan aytib o'tilgan [Миртожиев 2013, 294-299, Махмудов 2006, 67-68; Нетьматов 1992, 45-59].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Singarmonizm masalasi ko'plab tilshunos olimlarning ilmiy asarlarida yoritilgan. Jumladan, singarmonizm masalasi ilk bora Boduen de Kurtane asarlarida tavsiflangan. U singarmonizmni «цементирующее средство» ya'ni "mustahkam asoslovchi vazifasini bajaradi", deb izohlaydi. Turkiy tillar kesimida Alisher Navoiy birinchilardan bo'lib o'z asarlarida singarmonizm haqida gapiradi. Alisher Navoiy o'zbek tilida to'rttadan "o'" va "i'" tovushi bor deb hisoblagan. U o'z ona tilidagi bunday ko'pumlilikni iftixor bilan zikr etgan. Qolaversa, jadid adabiyoti namoyondalari Fitrat, Elbek, Ashurali Zohiriy va Qayum Ramazonlar Navoiy asarlariga murojaat qilgan holda o'zbek tilida hali ham singarmonizm mavjud deb hisoblashadi. Rus tilshunoslari Cherkasskiy M. A. o'zining "Turk, vokalizm va singarmonizm" (M., 1965), Vinogradov V. A. "Singarmonika tipologiyasi. Afrika va Evroosiyo tillaridagi tendentsiyalar" (M., 1972) asarlarida singarmonizm masalasiga atroflicha to'xtalishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolada asosan lingvistik tavsiflash va qiyoslash metodidan foydalanilgan. Singarmonizm hodisasi aks etgan misollar tavsiflangan va muallif tomonidan ilmiy asoslab berilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Singarmonizm ham assimilatsiyaning bir ko'rinishidir [I. Yo'ldoshev, O. Sharipova 2007, 58-59]. Singarmonizm ikki xil bo'ladi:

1. Palatal singarmonizm.
2. Labial singarmonizm.

Palatal singarmonizm o'zbek tilidan boshqa barcha turkiy tillarga xos fonetik qonundir [I. Yo'ldoshev, O. Sharipova 2007, 58-59]. Bu fonetik qonunga muvofiq so'z tarkibidagi "qattiq" ya'ni til orqa unlilari yoki "yumshoq" ya'ni til oldi unlilari ohangdoshlashib uyg'unlashadi. Masalan:

- Qoraqalpoq tilida – balalarымыздan;
- Ozərbayjon tilida – gardashlarымыздan;
- Qirg'iz tilida – moldolordan.

Shunday qilib, palatal singarmonizm hamda so'zning hamma morfemalaridagi unlilar, ya'ni so'zning o'zagidagi morfemalar hamda affikslardagi unlilar ohangdoshlashib

moslashgan bo'lad. Shuning uchun ham ko'pchilik turkiy tillarda affikslarning kamida ikkitadan variant bor. Masalan:

Qoraqalpoq tilida – bala-lar-i-miz-dan, mektep-ler-i-miz-dan;

Qirg'iz tilida- mektep-te-te,too-do.

Labial singarmonizm barcha turkiy tillarda ham uchramaydi [I. Yo'ldoshev,O. Sharipova A, 2007,58-59]. Labial singarmonizm hodisasi bor bo'lgan tillarda so'zning oldingi bo'g'inidagi lablangan unli o'zidan keying bo'g'indagi unliga ta'sir qilib , ularni lablangan unliga o'xshatib, moslashtiradi. Masalan:

Turk tilida - kulu (qo'li);

Turkman tilida – düölörö (tuyalarga), o'g'lonloro (o'g'illarga).

Usmonli turk tilida ham singarmonizm hodisasi to'lig'icha saqlanib qolgan. Turk tilidagi unlilar ikkiga:

a) kalın (qattiq) unlilar: a,i,o,u;

b) ince (yumshoq) unlilar: ü, ö, e, i ga bo'linadi. Bunda, bevosita, asosga qo'shilgan qo'shimchalar ham asosdagi unliga qarab o'zgaradi. Masalan, gün+ler-kunlar, akşam+lar- oqshomlar.

Keltirilgan so'zlarning birinchisining asosi (u) yumshoq unli bo'lgani uchun ko'plik qo'chimchasi hamm – ler shaklida ya'ni yumshoq unlili qilib qo'shildi. Ikkinchi so'zda esa akşam so'zidagi barcha unlilar qalin bo'lgani sababli qo'chimchadagi unli ham – a (qattiq unli)ga aylandi.

Singarmonizm hodisasi nafaqat unli tovushlar, balki undoshlarda ham aks etishi mumkin. Usmonli turk tilida undoshlar 21 tani tashkil qiladi va ular ikkiga:

a) jarangli (qattiq): f,s,t,k,ç,ş,h,p;

b) jarangsiz (yumshoq): b,c,d,g,g',j, l,m,n,r,v,y,z. Ular ham qo'llanishiga ko'ra xuddi unlilar kabidir. Jumladan:

Turk tilida - okul (maktab) okulda (maktabda);

Ev (uy) evde (uyda);

Saat (soat) saatte (soatda).

Yuqoridagi misollarda -da o'rin-payt kelishigining o'zi qo'shilayotgan asosdagi unli va undoshlarga qarab o'zgarishini kuzatishimiz mumkin. Ya'ni,

l – yumshoq – da – yumshoq;

v – yumshoq – da – yumshoq;

t – qattiq – te – qattiq.

Tahlil boshida ta'kidlanganidek, xuddi mana shu kabi o'zgarishlar sabab turkiy tillarda qo'shimchalarning bir necha variantlari (-da,-te) mavjud.

Endi boshqa turkiy tillarda saqlanib qolgan singarmonizm elementlarini ko'rib chiqamiz. Boshqird tilida undoshlarning yumshoqligi unlilarga bog'liq. Yumshoq unlilar yonida undoshlar yumshoq talaffuz qilinadi. Masalan, gol, saska, balakay. Qattiq unlilar yonida undoshlar qattiq talaffuz qilinadi. Masalan, bala, urman,daga.

Qolaversa, boshqird tilida lab unlilari garmoniyasi ham mavjud. Lab unlilaridan keyin o,e ravishdoshlari (genetiv va qaratqich kelishiklarida) o yoki e harfi bilan kelishi kerak. Misol uchun, gel-kel, goldon-guldon, tormosh-hayot, tormoshton-hayotda.

Agar lab unlilari o bo'lgan bo'g'inda y unlilari bo'lgan bo'g'in bo'lsa, bunday hollarda garmoniya to'xtab qoladi. Masalan, osau-uch, osauue-uchta.

Qozoq tilida ham qattiq undoshlar – k.g faqat qattiq unlilar bilan birikadi. Masalan, qulak-quloq, pul-pul,kalta-cho'ntak. Agar so'z a,e,y yumshoq harflar bilan boshlansa, so'z oxirigacha ular yumshoq qatorda bo'ladi. Masalan, ademi-chiroyli, kul-gilam, kogershin-kaptar.

Mahalliy qozoq so'zlarida qattiq qatordagi harflar yumshoq qatordagi harflar bilan aralashmaydi. Qolaversa, qozoq tilida, xuddi boshqa turkiy tillarda bo'lganidek, singarmonizm qonuni o'zlashtirilgan so'zlarga bo'ysunmaydi. Jumladan, hazir-hozir, kitob-kitob,kazhet-kerak,mug'alim-o'qituvchi.

Singarmonizm masalasi xususida o'zbek tilshunosligida ham bir necha bahsli munozaralar mavjud. Fitrat va Qayum Ramazonlar buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodini o'zlariga dasturilamal qilgan holda o'zbek tilida hozirda ham singarmonizm qonuniyati to'la amal qiladi, unlilar yo'g'on-ingichkalik xususiyatiga ko'ra farqlanadi va unlilar soni 8-9 ta degan fikrni ilgari suradilar. Elbek, Ashurali Zohiriy kabi tilshunolar esa bu qonuniyatga bohqacharoq munosabatda bo'ladi [Inomjon Azimov].

Elbek "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1929-yil 30-yanvar sonida e'lon qilingan "Til, atama, imlo bahslari" rukni ostida "Til imlosi ustida" maqolasida singarmonizm bo'yicha o'z qarashlarini bayon etadi.

"Singarmonizm, - deydi adib mazkur maqolasida, - ko'p kishilarni cho'chitkan. Ba'zi bir kimsalarning kulgi va so'kish to'rvalarining yorilishiga sabab bo'lgan bu "so'z" chindan imlomizning butulig'in saqlash uchun elim va tilimizning ko'rkini oshirish uchun bir bezakdir. Bu qalinlik va ingichkalik ohangi bizning tilimizning jonidir, yiqilmas qo'rg'onidir. Buni bilmagan turk xalqi yo'q desak, yanglishmaymiz. Bas, bizning demakchi bo'lg'onimiz o'zbek tilining sufati, ya'ni uning bezagi - singarmo'nizm masalasi naq ana shu adabiy, jonli tilimiz masalasidir. Bunga qarshi bo'lg'onlar, shubhasiz, shu tilning grajdanlik huquqig'a zarba bergusidirlar " [ЖАМОЛХОНОВ, Умаров, 2017, 207].

O'sha davrdagi shu kabi qarashlar mavjudligi bois, olimlar o'zbek tilida unlilar 6 ta emas, balki 9 tani tashkil qiladi, degan fikrlarni ham berishgan. Lekin minimalizm va o'zlashma so'zlarning ko'pligi sababli unlilar soni qat'iy 6 ta, deb belgilangan va hozirda biz foydalanayotgan alifboda ba'zi bir unli harflar shaklan bitta bo'lsa-da, ammo so'zning qaysi o'rnida va qanday harflar bilan qo'llanishiga ko'ra turlicha (yo'g'on, ingichka, bildirib, bildirmay) talaffuz qilinadi.

Qolaversa, singarmonizm unsurlari o'zbek tilining ayrim shevalarida ham saqlanib qolgan. Jumladan, Qo'qon shevasida bala so'zidagi unlilar old qator bo'lganidan unga faqat shunday unlisi bo'lgan qo'shimcha qo'shiladi: balalar.

XULOSA

Yuqoridagi tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, turkiy bobotil ta'sirida shakllangan turkiy tillarning umumiy fonetik qonuniyatlaridan bo'lmish singarmonizm hodisasi hozirda ham ko'plab tillarda saqlanib qolgan. Jumladan, usmonli turk, qozoq, qirg'iz va boshqird tillari bunga yorqin misoldir. Ammo davrlar osha sayqallanib va rivojlanib, boyib borayotgan o'zbek tilida bu fonetik qonuniyat faqatgina ba'zi bir og'zaki nutqlardagina saqlanib qolgan.

Adabiyotlar:

1. To a question of a singarmonizm in phraseological units of the Azerbaijani language – June 2016, Historical and Social-educational ideas 8 (3/1): 164-169
2. Turkmen turkcesinde Dudak benzesmesi (Labial singarmonizm) - Turk Dunyasi Dil ve Edebiyot Dergisi – Year 2019, Vol 1, Issue 47
3. The National Phonetic Views of Ashurali Zohiri and Elbek (Inomjon Azimov) – Vol.2 No. 2 (2020): Uzbekistan : Language and Culture
4. Ibrohim Yo'ldoshev, O'lmas Sharipova Tilshunoslik asoslari. Toshkent, "Iqtisod- moliya " , 2007.
5. Xorazm qipchoq shevalari leksikasining o'ziga xos xususiyatlari (Shahnoza Alimova) – Uluslararası turkbilim ogrenci kurultayi, "Nur – Sultan", 2021.
6. Navoiy asarlaridagi astronomik qarashlar - "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020.
7. Толковый словарь Ушакова. Д.Н. Ушаков. 1935 1940 ... Толковый словарь Ушакова.
8. Толковый словарь Ефремовой. Т. Ф. Ефремова. 2000 ... Современный толковый словарь русского языка Ефремовой.
9. WWW. MALUMOT. RU – ma'lumotlar bazasi.
10. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi – 2000-2005.
11. QOMUS.INFO – Onlayn ensiklopediya.